

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOV ULUG‘BEK SAMADOVICH

**JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIYI MA’NAVIY” ASARI
O‘ZBEKCHA VA INGLIZCHA TARJIMALARIDA ODDIY
FOLKLORIZMNING BERILISHI (JAMOL KAMOL VA R.A.NIKOLSON
TARJIMALARI ASOSIDA)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in
Philology**

Azimov Ulug'bek Samadovich

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari o'zbekcha va inglizcha tarjimalarida oddiy folklorizmning berilishi (Jamol Kamol va R.A.Nikolson tarjimalari asosida)..... 3

Азимов Улугбек Самадович

Передача простого фольклоризма в узбекском и английском переводах произведения Джалалиддина Руми «Маснавийи Маънави» (на основе переводов Джамала Камала и Р.А.Николсона) 23

Azimov Ulugbek Samadovich

Representation of Simple Folklorism in Uzbek and English Translations of "Masnaviyi manavi" by Jalaluddin Rumi (based on Translations by Jamal Kamal and R.A.Nicholson) 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works 49

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

AZIMOV ULUG‘BEK SAMADOVICH

JALOLIDDIN RUMIYNING “MASNAVIYI MA’NAVIY” ASARI
O‘ZBEKCHA VA INGLIZCHA TARJIMALARIDA ODDIY
FOLKLORIZMNING BERILISHI (JAMOL KAMOL VA R.A.NIKOLSON
TARJIMALARI ASOSIDA)

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

FILOLOGIYA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.2.PhD/Fil3451 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Sharipova Laylo Frunzeyevna**
filologiya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponenlar: **Mo'minov Fayzullo Abdullayevich**
filologiya fanlari doktori, professor

Saidova Muxayyo Umediloyevna
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot: **Termiz davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi DSc.03/04.06.2021.Fil.72.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «16» noyabr soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (511 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «22» oktabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «22» oktabr dagi 24-33 - raqamli reyestr bayonnomasi).



D.S.O'rayeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

Z.I.Rasulov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, filologiya fanlari doktori,
professor

F.M.Xajiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya
fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligida xalq og‘zaki poetik ijodidan foydalanish yozma she‘riyat taraqqiyotining, ayni damda, har bir el she‘riyatining turli davrida turlicha kechgani tadqiq qilib kelinmoqda. Har bir shoirning, har bir elning o‘z folklorizmi borki, ularni tadqiq qilish, bu jarayonni tarjima adabiyoti namunalari o‘zaro chog‘ishtirish nuqtayi nazaridan izchil tahlil etish, tarjimashunoslik hamda qiyosiy adabiyotshunoslikning asosiy vazifalaridan muhim hisoblangan bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilingan asar bag‘ridagi oddiy folklorizm ko‘magida yuzaga kelgan umuminsoniy xulosalarni o‘rganish va ilmiy talqin etishga imkoniyat yaratadi.

Dunyo adabiyotshunosligida folklor va yozma adabiyot munosabatlarini turli yo‘nalishlarda muntazam tadqiq etish barcha davrlarda birday dolzarb ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Xususan, tarjimashunoslikda, qiyosiy adabiyotshunoslikda oddiy folklorizmning asliyat va tarjimadagi holatini aniqlash, uning asar badiiyatidagi o‘rnini belgilab berish adabiyotning ham, adabiyotshunoslikning ham rivojiga ko‘maklashadi. Zero, og‘zaki hamda yozma adabiyot ayricha estetik tizim hisoblanib, ularning bir-biriga munosabati davomiylik kasb etar ekan, buni asliyat va tarjima misolida o‘rganish, xususan Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub “Masnaviyi ma’naviy”ning o‘zbekcha va inglizcha tarjimalari tadqiqi, Sharq mentaliteti va G‘arb dunyoqarashidagi mushtarak hamda tafovutli jihatlar ifodasi singari masalalarni aniqlashda muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bugungi kunda barcha sohalar kabi tarjimashunoslik ham, qiyosiy adabiyotshunoslik ham davr talabiga muvofiq tadqiqotlar bilan boyitilib, uning ilmiy-nazariy va amaliy-kontseptual asoslarini mustahkamlash ustuvorlik kasb etmoqda. “... Adabiyot va san‘atga, madaniyatga e’tibor – bu avvalo xalqimizga e’tibor, kelajagimizga e’tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho‘lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo‘q”¹. Zero, bugun “ma’naviyat yangi kuchga, yangi harakatga aylanishi shart!”². Shu jihatdan, “Masnaviyi ma’naviy”da oddiy folklorizmning poetik vazifasini oydinlashtirish; maqol, olqish, qarg‘ish janrlarining, xalq iboralarining oddiy folklorizmga aylanishi jarayonidagi shoir va tarjimon mahoratini tadqiq etish hozirgacha umuman o‘rganilmagan muhim muammoki, bu dissertatsiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini

¹ Мирзиёев Ш. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш – халқимиз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. // Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

² Мирзиёев Ш. Маънавият ҳаётимизда янги куч, янги ҳаракатга айланиши керак. Президентнинг Республика Маънавият ва маърифат кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи / “Янги Ўзбекистон”. – № 267 (1056). 2023 йил 23 декабрь.

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son “Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Folklor va yozma adabiyot munosabatlari benihoya keng bo‘lib, bu muammo milliy adabiyotning shakllanishi va rivojlanishida xalq og‘zaki ijodining roli, unga xos tasviriy vositalardan foydalanishning muhim tomonlari kabi masalalarni qamrab oladi. Ushbu masalani adabiyotshunoslik bilan bir qatorda tarjimashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik ham o‘rganar ekan, ikki adabiyot misolida tadqiq qiladi, bu boradagi mushtaraklik va farqni belgilaydi. Dioniz Dyurishin, R.A.Nevmark, M.Y.Dementeva, V.N.Komissarov³ singari jahon tarjimashunoslari sohaning ilmiy-nazariy muammolari haqida fikr yuritdilar. G‘Salomov, N.Komilov, K.Jo‘rayev, I.G‘ofurov, Q.Musayev, T.Jo‘rayev, M.Xolbekov, M.Baqoyeva, Sh.Sirojiddinov⁴ va boshqa olimlarimizning tarjima nazariyasi hamda amaliyoti bilan bog‘liq tadqiqotlari sohaning atroflicha rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etdi.

Folklorning yozma adabiyotga ta‘siri tufayli yuzaga keladigan hodisalardan biri folklorizmdir. Dunyo adabiyotshunosligi bu jarayonni ko‘p yillardirki, o‘rganib keladi. O‘zbek adabiyotshunosligida folklorizm hodisasini tadqiq qilish

³ Диониз Дюришин. Теория сравнительного изучения литературы. – М.: ПРОГРЕСС, 1979. – 320 с.; Newmark P. A. Textbook of Translation. London. 2002; Dementeva M.Y. Номинативно-когнитивный аспект семантики фразеологизма и слова. – М. Автореф. дисс.... канд.филол.наук., 2002; Komissarov V. N. Общая теория перевода. – М., 2003; Komissarov V. N. Современное переводоведение. – М. 2004.

⁴ Саломов Ф. Мақол ва идиомалар таржимаси. – Т.: ЎЗР ФА нашриёти, 1961. – 159 б.; Саломов Ф. Таржима назариясига кириш.–Т.: Ўқитувчи, 1982. – 236 б.; Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари: (Поэзия ва таржима). – Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1979. – 224 б.; G‘ofurov I., Mo‘minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o‘quv yurtlari uchun o‘quv qo‘llanma - Toshkent: Tafakkur bo‘stoni, 2012. – 216 b.; Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. – Т.: Фан, 2005. – 352 б.; Жўраев К. Таржима санъати. – Т.: Фан, 1982. – 60 б.; Жўраев К., Жўраев Э. ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон, 2008. – 116 б.; Холбеков М. Таржимашунослик ва таржима танқиди. – Т.: Наврўз, 2015. – 120 б.; Бақоева М. Инглиз ва Америка адабиётидан ўзбек тилига шеърлий таржима ва қиёсий шеършунослик муаммолари. – Т.: Фан, 2015. – 288 б.; Сирожиддинов Ш., Одилова Г. Бадий таржима асослари. – Т.: Мумтоз сўз, 2011. – 164 б.

aslida rus va qardosh xalqlar adabiyotshunosligi ta'sirida yuz berdi. Binobarin, dunyo adabiyotshunosligida P.S.Vixodsev, L.I.Emelyanov, A.A.Gorelev, G.A.Levinton, U.B.Dalgat⁵ kabi tadqiqotchilar folklorizmning tabiatini ilmiy jihatdan izohlab berdilar.

XX asrning 80-yillarida o'zbek adabiyotshunosligida folklorizmni nazariy asoslash boshlandi. Professor B.Sarimsoqov o'zbek adabiyoti xususiyatlaridan kelib chiqib folklorizmning, jumladan, oddiy folklorizmning o'zbek adabiyotshunosligidagi ilk tasnifini yaratdi. Oddiy folklorizmni I.Yormatov, O.Safarov, D.Xoliqova, L.Sharipova, S.Atajonov, D.Hajiyevalar o'zbek; G.Begmuratova qoraqalpoq adabiyoti misolida⁶ tadqiq qilishdi. Ushbu tadqiqotlarda oddiy folklorizmning she'riyat poetikasidagi o'rni alohida o'rganilgan. Ammo oddiy folklorizmning tarjima jarayonidagi o'rni va ahamiyati o'rganilgan emas. Bu borada tadqiqotlarning mavjud emasligi mavzuning dolzarbligini ko'rsatadi.

R.Fayzullayeva, B.Shamsiyeva, H.Yusupova, R.Qosimova, M.Gadoyeva, O.Fayzullayev⁷ singari olimlar tadqiqotlarida tarjima jarayoni, bu jarayonda maqol, olqish, qarg'ishning berilishi tadqiq etilgan. Mazkur ishda esa Jaloliddin Rumiy qalamiga mansub "Masnaviyi ma'naviy" asarini o'zbek va ingliz tillariga tarjima qilish jarayonida asliyadagi oddiy folklorizmlarning o'girilish holati, tarjimonlar yuzaga keltirgan oddiy folklorizmlar birinchi bor monografik tartibda o'rganilmoqda.

Hozirgacha "Masnaviyi ma'naviy" asari dunyo adabiyotshunoslari, jumladan, o'zbek olimlari tomonidan qayta-qayta tahlilga tortilmoqda, talqin qilinmoqda. M.Siroj, Zarrinko'b Abulhusayn, I.Ibrohimova, B.Ziyomuhamedov, Q.To'xsanov, G.Izbullayeva⁸ singari olimlarning ishlari bu boradagi o'ziga

⁵ Выходцев П.С. Русская советская поэзия и народное творчество. – Л., 1963; Емельянов Л.И. К вопросу о фольклоризме древней русской литературы // Русской фольклор. Т. 7. – М.-Л., 1962; Методологические вопросы фольклористики. – Л.: Наука, 1978; Горелев А.А. Введение в книгу: Русская литература и фольклор. – Л.: Наука, 1982; Левинтон Г.А. Заметки о фольклоризме Блока // Миф-Фольклор-Литература. – Л.: Наука, 1978; Дальгат У.Б. Литература и фольклор – М.: Наука, 1981. – 303 с.

⁶ Ёрматов И. Типология фольклоризмов в современной узбекской литературе (60-е начало 80-х годов) КД. – Т., 1985. – С.36-38; Сафаров О. Фольклор ва болалар адабиёти // ЎТА, 2003. – №6. – Б.20-27; Холиқова Д. Ҳозирги ўзбек шеърятда фольклоризмлар // ЎТА, 2004. – №4. – Б.58-61. Шарипова Л. XX асрнинг 70-80-йиллари ўзбек шеърятда фольклоризм. – Тошкент: Фан, 2011. – 152 б.; Шу муаллиф. Шеърят ва фольклор. – Тошкент: Наврўз, 2019. – 204 б.; Атажанов С. Эркин Самандарнинг фольклоризмлардан фойдаланишдаги маҳорати: Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. – Урганч, 2021. – 159 б.; Ҳажиева Д. Эркин Воҳидовнинг фольклоризмдан фойдаланиш маҳорати: Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. – Урганч, 2023. – 139 б.; Бегмуратова Г.А. Мустақиллик даври қорақалпоқ романларида фольклоризмлар: Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. ... автореф. – Нукус, 2019. – 54 б.

⁷ Файзуллаева Р. К проблеме передачи национального колорита в художественном переводе: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент: ИЯЛ АНРУз, 1972. – 225 с.; Шамсиева Б. Вопросы узбекского фольклора в зарубежном литературоведении: Дисс... канд. филол. наук. – Тошкент, 1994. – 207 б.; Юсупова Ҳ. Ўзбек халқ оғзаки насри намуналарининг инглизча таржималарида миллий колоритнинг ифодаланиши (эртақлар, латифалар мисолида): Филол. фан. номз. дисс. – Тошкент, 2011. – 149 б.; Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши: Ф.ф.ф.д.(PhD) дисс. – Тошкент, 2018. – 48 б.; Гадоева М. Инглиз ва ўзбек тилларида соматизмларнинг семантик-прагматик тадқиқи (фольклорнинг кичик жанрлари мисолида). Монография. – Бухоро: Дурдона, 2022. – Б.159-181. Файзуллаев О. Ўзбек фольклоридagi лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртақлар мисолида): Ф.ф.ф.д.(PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.

⁸ Сирож М. Мавлоно Балхий ва падараш. Таъсири "Маъориф" бар "Маснавийи маънавий". – Қобул, 1340. – 118 с.; Зарринқўб Абулхусайн. Палла-палла то мулокотиэ Худо. (Дар борайи зиндаги, андиша ва сулукиэ

xos tadqiqotlardir. Ammo bu tadqiqotlardan farqli o'laroq mazkur ishda asardagi oddiy folklorizmning ikki tildagi tarjimada berilishi tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 2021-2025 yillarga mo'ljallangan "Tilning leksik-semantik tizimi, qiyosiy-tipologik izlanishlar va adabiyotshunoslik muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asari o'zbekcha va inglizcha tarjimalarida oddiy folklorizmning berilishini Jamol Kamol va R.A.Nikolson tarjimalari asosida aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Masnaviyi ma'naviy"ning o'zbekcha va inglizcha tarjimalarida maqol, ibora, olqish, qarg'ish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlarni berishdagi o'xshash hamda farqli jihatlarni qiyoslash;

oddiy folklorizmlarning asarda tutgan o'rni, uni o'girishda tarjimonlar qo'llagan usullar xususida fikr yuritish;

asliyatdagi oddiy folklorizmning o'zbekcha va inglizcha tarjimada berilmagan o'rinlarini, aksincha, tarjimada asliyatda bo'lmagan oddiy folklorizmlarning mavjudligini izohlab berish;

oddiy folklorizmning "Masnaviyi ma'naviy" kompozitsiyasi, syujetidagi o'rnini; maqol, olqish, qarg'ish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlarni berishda tarjimonlarning mahoratini belgilab berish.

Tadqiqotning obyekti. Dissertatsiyada Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarining asli, o'zbekchada Jamol Kamol, inglizchada R.A.Nikolsonning tarjimalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarining o'zbekcha va inglizcha, Jamol Kamol va R.A.Nikolson tarjimalarida oddiy folklorizmning berilishini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, analitik, deskriptiv, tasniflash, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Jaloliddin Rumiyning "Masnaviyi ma'naviy" asarida maqol, ibora, olqish, qarg'ish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm namunalari asar g'oyasini ochish, hikoyatlar mazmunini anglash, shoir xulosalarini mukammallashtirish, asar kompozitsiya va syujetini yaratish, poetik vazifa va ahamiyatini rivojlantirish ustivorligida namoyon bo'lishi isbotlangan;

"Masnaviyi ma'naviy"ni o'zbek mutarjimi Jamol Kamol tarjimasida muqobilini topish, so'zma-so'z o'girish, so'z qo'shish, so'zlarni tushirib qoldirish,

Мавлоно Жалолиддини Румий). – Техрон, 1373. – 341 б.; Ibrohimova I.H. Myuvlana Jalaladdin Ruminin "Masnavi-ye ma'navi" asari islam tasavvufunin asos gaynaglarundan biri kimi: falsafa ilmlari namizadi alimlik darajasi almag uchun taqdim edilmish diss...avtoref. – Baku, 2005. – 33 s.; Зиёмухаммедов Б. Комилликка элтувчи китоб. – Тошкент: Турон-икбол, 2006. – 350 б.; Тўхсанов Қ. "Маснавий" сабоқлари. – Тошкент: Фан, 2008; Тўхсанов Қ. "Маснавий" сабоқлари. –Тошкент: Маънавият, 2010; Избуллаева Г.В. Жалолиддин Румий асарларида юксак маънавиятли шахс тарбияси. – Тошкент: Фан, 2015. – 208 б.

modulyatsiya, ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish usullari unumdorligi, R.A.Nikolson tarjimasida esa kalkalash, muqobilini topish, so'zlarni tushirib qoldirish, so'zlarni qo'shish, transliteratsiya, sinonim so'zlardan foydalanish singari tarjima usullarining funktsionallik samaradorligi aniqlangan;

har ikkala tarjimon ijodida asliyatdagi maqollar asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm tarjimalari o'sha xalq milliy-madaniy turmush tarzi, dunyoqarashi, axloqiy-ta'limiy qarashlari, psixologiyasi, etnofolkloristik, etnolingvistik, lingvosotsiologik, lingvokulturologik kabi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishi asoslangan;

qarg'ish va olqishlar Yaratganning kalomiga, islom falsafasiga tayanib, ba'zan olqish shaklida berilgan duoning aslida qarg'ish ekani, qarg'ish aslida olqish bo'lib chiqishi, ularning o'zaro mazmunan almashinishi mumkinligi adabiy aspektida yoritilgan va tarjimada qayta tiklash jarayonining bayon etish vositalarini saqlash, muallif va mutarjim ovoziining yaxlitligi, umuminsoniy jihatlarning ustuvorligi kabi tamoyillar asosida kechishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Oddiy folklorizmning maqol, ibora, olqish va qarg'ish asosida yuzaga kelishi, ularning badiiy asar g'oyasini, mazmun-mohiyatini chuqurroq ifodalashda muhim o'rin tutishi aniqlangan hamda misollar asosida dalillangan;

tarjima jarayonida maqol asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda mavjud bo'lsa, tarjimon tarjima tilida uchraydigan maqol variantlaridan mohirlik bilan foydalanishi zarurligi, o'zbek hamda ingliz mutarjimlari bu jihatga, asosan, tog'ri yondashgani oydinlashtirilgan;

ibora, olqish va qarg'ish asosida yuzaga kelgan folklorizm oddiy folklorizm ekani, ibora doim ham saqlanaverilmagani, olqish va qarg'ishdan hosil bo'lgan oddiy folklorizm ko'magida o'gitli xulosalar chiqarilishi; tarjima jarayonida oddiy folklorizmni asliyatdagi ma'noga mutanosib holda tanlash lozimligi, ikki tarjimon ham bu borada mahoratli ekani ko'rsatib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi muammoning aniq qo'yilganligi, olimlarning nazariy fikrlariga tayanilganligi, tadqiqotda zamonaviy tarjimashunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik yutuqlaridan kelib chiqqan holda chiqarilgan xulosalarning qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, analitik, deskriptiv, tasniflash, statistik kabi usullar orqali dalillanganligi bilan belgilanadi; nazariy fikr va natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan xulosalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tarjimashunoslik sohasida mavjud muammolarni tadqiq qilish, adabiyotshunoslikda yuzaga kelgan yangi yo'nalishlar va mavzularning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganish, asosiy tahliliy xulosalari va umumlashmalari o'zbek tarjimashunosligi, qiyosiy adabiyotshunosligi, folklorshunosligi yutuqlariga tayanib, oddiy folklorizmning badiiy asardagi o'rnini ilmiy tahlil qilishda o'ziga xos nazariy ahamiyat kasb etishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati folklorshunoslik, qiyosiy adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik fanlari bo'yicha ta'lim tizimining barcha

bosqichlari talabalariga dars mashgʻulotlari olib borishda: maʼruza oʻqishda, maxsus kurs, amaliy mashgʻulot va seminarlar oʻtishda, shuningdek, bu fanlar boʻyicha oʻquv qoʻllanmalar, darslik, majmualar, atamalar lugʻati yaratishda, ommaviy axborot vositalarida “Masnaviyi maʼnaviy”dagi oddiy folklorizmni, ularning tarjimadagi ifodasida oʻziga xoslik kasb etishini targʻib hamda tashviq qilishda atroflicha foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi maʼnaviy” asari oʻzbekcha va inglizcha tarjimalarida oddiy folklorizmning Jamol Kamol va R.A.Nikolson tarjimalari asosida berilishi boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi maʼnaviy” asarida maqol, ibora, olqish, qargʻish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm namunalari asar gʻoyasini ochish, hikoyatlar mazmunini anglash, shoir xulosalarini mukammallashtirish, asar kompozitsiya va syujetini yaratish, poetik vazifa va ahamiyatini rivojlantirish ustivorligida namoyon boʻlishiga oid ilmiy xulosalardan Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida OT-F1-029 “Oʻzbek davlatchiligi tarixida sugʻdiy til va yozuvining tutgan oʻrni” mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani bajarishda foydalanilgan (Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2023-yil 13-dekabrda 04/1-2670-son maʼlumotnomasi). Natijada maqollar va iboralar ikki xalq tilidagi oʻxshash hamda farqli jihatlarni chogʻishtirishga asoslangan soha lugʻatlari yaratish uchun yangi ilmiy-nazariy manba, maʼlumotlar bilan boyitilgan hamda har ikkala tilda mavjud maqol va iboralardan badiiy asarlar tarjimasi jarayonida oʻrinli foydalanishga oid nazariy va amaliy materiallardan keng foydalanilgan;

“Masnaviyi maʼnaviy”ni oʻzbek mutarjimi Jamol Kamol tarjimasida muqobilini topish, soʻzma-soʻz oʻgirish, soʻz qoʻshish, soʻzlarni tushirib qoldirish, modulyatsiya, maʼnoni yaqinlashtirib tarjima qilish usullari unumdorligida, R.A.Nikolsonda kalkalash, muqobilini topish, soʻzlarni tushirib qoldirish, soʻzlarni qoʻshish, transliteratsiya, sinonim soʻzlardan foydalanish singari tarjima usullarining funktsionallik samaradorligiga oid xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida 2016-2018 yillarda amalga oshirilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 561624-ERR-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “Oʻzbekistonda oliy talim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xorijiy loyihada foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2023-yil 8-avgustdagi №100/02-son maʼlumotnomasi). Natijada “Masnaviyi maʼnaviy” asari va uning ikki tilga tarjimasidagi oddiy folklorizmlar orqali loyihada koʻzga tutilgan maqsadning takomillashuvini taʼminlashga erishilgan;

har ikkala tarjimon ijodida asliyatdagi maqollar asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm tarjimalari oʻsha xalq milliy-madaniy turmush tarzi, dunyoqarashi, axloqiy-taʼlimiy qarashlari, psixologiyasi, etnofolkloristik, etnolingvistik, lingvososiologik, lingvokulturologik kabi lingvistik hamda ekstralingvistik omillar asosida vujudga kelishi bilan bogʻliq xulosa va natijalardan Buxoro viloyat teleradiokompaniyasida “Dolzarb mavzu”, “Assalom Buxoro”, “Til millat

kuzgusi” ko‘rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokompaniyasining 2022-yil 11-oktyabrdagi №1/253-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu teleko‘rsatuvlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammallashtirilib, ilmiy dalillarga boy bo‘lishiga, ko‘rsatuvning ilmiy-ommabopligini ta’minlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza ko‘rinishida bayon etilgan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 150 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ishning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Oddiy folklorizmning tarjimada berilishi masalasi” deb nomlangan birinchi bobi ikki fasldan iborat. Birinchi fasl “Masnaviyi ma’naviy” asarida va uning o‘zbekcha, inglizcha tarjimalarida oddiy folklorizmning ko‘rinishlari” deb nomlangan bo‘lib, unda oddiy folklorizm maqol, ibora, olqish va qarg‘ish asosida yuzaga kelishi, oddiy folklorizmning asliyat hamda tarjimadagi holati tadqiq qilingan. Oddiy folklorizmlar asarning o‘zbekcha va inglizcha tarjimasida turli tarzda uchrashi, tarjima davomida mutarjim ham oddiy folklorizm hosil qilishi mumkin. “Masnaviyi ma’naviy”da oddiy folklorizmlar ikki maqsadda qo‘llangan:

1. Ezgulikni targ‘ib qiluvchi oddiy folklorizmlar.
2. Yovuzlikni fosh qiluvchi oddiy folklorizmlar.

Olqish asosida yuzaga keladigan oddiy folklorizmlar, asosan, ezgulikni targ‘ib qiluvchi; qarg‘ish negizida hosil qilinadigan oddiy folklorizmlar esa yovuzlikni fosh qilish maqsadida yaratilgan oddiy folklorizmlar sifatida shoirning xulosasini muxlisga anglatadi. Maqol va ibora qo‘llanish maqsadiga ko‘ra ikki turdagi oddiy folklorizmni ham yuzaga keltira oladi. “Masnaviyi ma’naviy”da shoir ikki ko‘rinishdagi oddiy folklorizmdan birday foydalana olgan.

Bir xalqning maqolini qo‘llagan shoir oddiy folklorizmni yuzaga keltirish jarayonida maqolning ma’lum qismini tushirib qoldirishi, maqol tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirishi mumkin. Bu vazn, qofiya, ifoda maqsadi kabilar bilan bog‘liqlik, tarjimonning vazifasi yanada og‘irlashadi. U zarur bo‘lganda oddiy folklorizmni saqlamasligi ham mumkin. Aksariyat hollarda oddiy folklorizmni saqlar ekan, bir xalq maqolini ikkinchi xalq, ya’ni tarjima tili daxldor el maqoli bilan almashtirish pallasida uning quyidagi vazifalari mavjud bo‘ladi:

1. Oddiy folklorizmni yuzaga keltirgan maqolning asliga mazmunan juda yaqin o‘zga xalq maqolini tanlash kerak.
2. Tanlangan maqol tarjima jarayonida asliyatdagi poetik vazifani bajara olishi lozim.

R.A.Nikolson tarjimasi nasriy tarjima bo‘lgani sabab so‘zma-so‘z tarjima o‘zini oqlaydi va tarjimon she’riy tarjimadagi kabi qiynalmaydi. Ammo asliyat she’riy tarzda yozilgani sabab nasriy tarjimada ham ma’lum qiyinchiliklar tug‘iladi. Bu jumlaning sintaktik qurilishi bilan bog‘liq. O‘zbekcha tarjima she’riy tarzda amalga oshirilgani sabab quyidagi qo‘shimcha qiyinchiliklar yuzaga keladi:

1. Vaznga rost keltirish.
2. Tarjima jarayonida tanlangan va oddiy folklorizmga aylantirilayotgan maqolning qofiyalanishga mutanosib kelishini ta’minlash. Bu jarayon tarjimonning vazifasi shoirniki kabi mas’uliyatli ekanini dalillaydi.

Maqolshunos olim B.Jo‘rayevaning “Ibora turg‘un so‘z bog‘lanmasi bo‘lib, obraz asosiga quriladi”⁹, – deyishiga diqqat qilsak, obrazli ifodani adabiyotshunoslik o‘rganishi lozim. “Iboralarning folklorda va yozma she’riyatda qo‘llanishi poetik maqsadiga ko‘ra o‘rganilsa, adabiyotshunosligimiz uchun muhim xulosalar qilinishiga yo‘l ocha oladi”¹⁰. Shunisi muhimki, ibora adabiyotshunoslikda ham turli tomondan tadqiq qilinadi. Iboralar asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmning tarjimada berilishi holatini o‘rganish ham muhim jarayondir.

“Masnaviyi ma’naviy”ning o‘zbek va ingliz tillariga tarjimasi muhim hodisa bo‘lib, Jaloliddin Rumiyning maqol, ibora, qarg‘ish, olqish asosida yaratgan oddiy folklorizmlarining tarjimada saqlangan, saqlanmagani tarjimonlar mahoratidan darak beradi.

Birinchi bobning ikkinchi fasli “Oddiy folklorizmni tarjimada berishda o‘ziga xosliklar” deb nomlangan. Unda oddiy folklorizm asliyat va tarjimada mavjudligiga ko‘ra quyidagicha tarzda uchrashi aytib o‘tilgan:

1. Asliyatda mavjud oddiy folklorizm tarjimada ham saqlab qolinadi.
2. Asliyatda mavjud oddiy folklorizm tarjimada saqlab qolinmaydi.
3. Asliyatda bo‘lmagani holda shoir fikrini tarjimada maqol, ibora, olqish, qarg‘ish ko‘magida berib, tarjimon oddiy folklorizmni hosil qiladi. Zero, ikki tilni bilish bilangina badiiy tarjimada muvaffaqiyat qozonib bo‘lmaydi. Tarjimaning

⁹ Жўраева Б. Ўзбек халқ мақоллари шаклланишининг лингвистик асослари. – Тошкент: Академнашр, 2019. – Б.15.

¹⁰ Шарипова Л. Шеърят ва фольклор. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.28.

qiyinchiliklarini yengib o'tish uchun tarjimondan ulkan tajriba va qobiliyat talab etiladi. Ingliz olimi H.Savori badiiy tarjima muammolarini, bir-birini inkor etuvchi talablarini sanab o'tganida haq edi¹¹. Tadqiqotchi O.Fayzullayev tarjima qilish jarayonida mutarjimlar ma'lum usullardan foydalanishlarini aytib o'tadi¹². Olima R.Qosimova ham o'z dissertatsiyasida o'zbek etnografizmlarining ingliz tilidagi tarjimalari haqida yozar ekan, qo'llangan tarjima usullariga alohida diqqat qaratadi¹³. Shu usullarning ayrimlari "Masnaviyi ma'naviy"ni o'zbek va ingliz tiliga o'girish jarayonida qo'l kelganini misollar bilan dalillash mumkin.

Jaloliddin Rumi "Aql quvvat girad az aqli digar"¹⁴ fors maqolini turli o'rinlarda vazn talabiga, holatga ko'ra turli tarzda qo'llab, oddiy folklorizmni yuzaga keltiradi:

Ақл қувват гирад аз ақли дигар,

Найшакар комил шавад аз найшакар?¹⁵(174-bet)

Shoir bu faslda bemorlikning belgilari, u yuqori darajotlarga erishish hamda balandlikka ko'tarilishda poydevor vazifasini bajarishi mumkinligini o'quvchilariga uqtiradi. Ushbu holat barchaga to'g'ri keladimi, degan savol tug'iladi. "Masnaviyi ma'naviy" kitobiga yozilgan sharhlarga e'tibor beradigan bo'lsak, bu holat quyidagicha izohlanadi: "2257-2265-baytlarda dard bedorlikka va ruhiy poklikka sabab bo'lishi bayon qilindi. Mavlononing nazdida bu dard ravshanbin va donishmandlarning dardidir. Ammo hamma dard va bemorlik ruhning tasfiyasiga (sofligiga) va nafsning pokligiga yordam bera olmaydi"¹⁶. Asarning "Payg'ambar (s.a.v.) xastani ko'rib, uning duoda gustohlik qilganini payqagani" faslidagi bu oddiy folklorizmni tarjimon shunday o'giradi, xalq maqoli deyarli aynan berilgan:

Chun aqlardin aql quvvat olar,

Nayshakar yonida o'sgay nayshakar(197-bet).

Shoir "nayshakar nayshakar tufayli komil bo'ladi" desa, Jamol Kamol "nayshakar yonida nayshakar o'sadi" deb tarjima qiladi. Baytning birinchi satrida asliyatda ham, o'zbekcha tarjimada ham oddiy folklorizm bor. Ikkinchi satr tarjimasi asliyatdan ifodasiga ko'ra tafovutli. Ko'rinadiki, o'zbek mutarjimi ijodiy tarjima qilish usulini tanlaydi. Tadqiqotchi M.Javbo'riyev ijodiy tarjimada me'yor bo'lishi lozimligini ta'kidlaganida haq¹⁷. O'zbek tarjimoni asar hajman yirik

¹¹ Саломов Ф., Комилов Н. Дўстлик кўприклари: (Поэзия ва таржима). – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – В.33-34.

¹² Файзуллаев О. "Ўзбек фольклоридаги лингвокультуремаларнинг инглизча таржимада берилиши (болалар фольклори ва эртақлар мисолида): Ф.ф.ф.д. (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – 160 б.

¹³ Қосимова Р. Ўзбек тўй ва мотам маросим фольклори матнларининг инглизча таржимасида этнографизмларнинг берилиши. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2018. – 48 б.

¹⁴ Haim S. .Persian-English proverbs. – Tehran, 1956. – P.301.

¹⁵ Мавлоно Чалолуддин Муҳаммади Балхӣ. Маснавий Маънавӣ. – Техрон: Нашри Замон, 2001. – С.172 (Бу kitobdan olingan keyingi misollarda sahifasini keltirish bilan cheklanamiz).

¹⁶ Маснавий Маънавий. Камолиддин Хусайн Хоразмий, Карим Замоний. Мукамал Шарх. 2-китоб 10-жуз. – Тошкент: Nilol-Nashr, 2021. – Б. 115.

¹⁷ Жавбўриев М. Бадий таржимада миллий характер ва тарихий давр колоритини қайта яратиш (О.Ёқубовнинг Улуғбек хазинаси тарихий романининг немисча таржимаси мисолида): Филол.фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1991. – 202 б.

bo'lgani sabab tarjimaning turli usullarini, jumladan, ijodiy tarjima usulini ko'p bor qo'llar ekan, me'yorni saqlay olgan. Ingliz tarjimoni esa ijodiy tarjima usulidan kam foydalangan. Ayni shu o'rinda oddiy folklorizmni saqlab qola olmagan, ammo u so'zma-so'z tarjima usulidan foydalanib, asliyatdagi ma'noni bera bilgan. R.A.Nikolson oldingi misralarni tarjimasida "Ақл қувват гирад аз ақли дигар" forsiy maqolini "the mind is helped by minds", ya'ni "Aql aqldan madad olar" deya ifodalagan bo'lsa, yuqoridagi misralarning tarjimasida esa "Mind gains strength from another mind", ya'ni "Aql aqldan quvvat olar" deya maqolni aynan o'girgan. Ammo tarjimada inglizcha maqol sifatida namoyon bo'lmagan.

Mind gains strength from another mind:
the sugar-cane is made perfect by the sugar-cane¹⁸.

Diqqat qilinsa, Jamol Kamol tarjimasida asliyatdagi ohang, jarangdorlik to'laqonli saqlab qolingani ko'rish mumkin. R.A.Nikolson bu o'rinda misralardagi har bir so'zni inglizcha variantlarda berib izohlaydi. Shuni ta'kidlash joizki, ingliz tarjimoni ham juda ulkan, mashaqqatli ishni amalga oshirgan.

Ushbu faslda maqol va iboradan tashqari olqish, qarg'ish asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlarning tarjima jarayonidagi o'ziga xosliklari misollar yordamida dalillangan. Tarjima qilish jarayonida o'zbek tarjimoni muqobilini topish, so'zma-so'z (kalkalash), so'zlarni qo'shib tarjima qilish yoki aksincha, so'zlarni tushirib qoldirish, ijodiy tarjima, modulyatsiya, ma'noni yaqinlashtirib tarjima qilish kabi usullardan unumli foydalangan bo'lsa, ingliz tarjimoni muqobilini topish, so'zlarni qo'shib tarjima qilish yoki aksincha, so'zlarni tushirib qoldirish usulidan foydalandi. U tarjima jarayonida eng ko'p qo'llagan usul so'zma-so'z (kalkalash) tarjima ekanini ta'kidlash lozim.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi "Masnaviyi ma'naviy" asarining o'zbekcha hamda inglizcha tarjimalarida maqol asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm" deb nomlangan va ikki fasldan iborat. Dastlabki fasl "Maqol asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlarning asliyat va tarjimadagi o'rni" deb atalgan. Bu faslda maqol asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmning asliyatda bor-yo'qligi, bor bo'lsa, o'zbek va ingliz tarjimoni tomonidan qay taxlit berilishi masalasi tadqiq etilgan. Oddiy folklorizm badiiy asarning poetikasida alohida o'rin tutadi. O'zbek va ingliz tiliga tarjima jarayonida oddiy folklorizmning berilishi ham o'ziga xoslik kasb etadi. Jaloliddin Rumiy "Masnaviyi ma'naviy" sida ham ko'plab xalq maqollaridan o'rinli foydalanilgan. Jumladan, "чўянда ёбанда бувад" tarzida ko'p bor keltirilgan.

Чуст ўро, то-ш чун банда бувад,
Лочарам чўянда ёбанда бувад (52-bet).

"Birinchi daftar"ning "Rum elchisining Amir al-mo'minin Umar Roziyallohu

¹⁸ The Mathnawī of Jalālu'ddīn Rūmī. (2011). Book I-VI. Translation by R. A. Nicholson. University of Cambridge. – P.137 (Bu kitobdan olingan keyingi misollarda betini keltirish bilan kifoyalanamiz. Shuningdek, o'zbekcha tarjimadan farqli o'laroq inglizcha tarjimada besh daftar alohida-alohida nashr qilingani bois betidan oldin qaysi daftardan olingani raqam orqali ifoda etiladi).

Anhu huzuriga kelib, uning karomatini ko‘rgani” faslida berilgan bu maqolni Jamol Kamol shunday tarjima qiladi:

Koshki qul bo‘lsam Umarga, derdi ul,
Izlagan topgay, degan gap to‘g‘ridur.

Bu satrlarni ingliz mutarjimi quyidagicha beradi:

He sought him that he might be as a slave to him:
inevitably the seeker is a finder (1-91-bet).

Ko‘rinadiki, R.A.Nikolson fors-tojik maqolining “The seeker is the finder” tarzidagi inglizcha variantidan foydalangan. Shoir hosil qilgan oddiy folklorizmni tarjimonlar tarjima tili imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda saqlab qolishga erishishgan. Kamoliddin Husayn Xorazmiy, Karim Zamoniylar asarning “Mukammal sharh”ida “Rum elchisi hazrati Umar roziyallohu anhuning dargohida bandalardek xizmat qilish uchun u zotni axtarar edi. Chunki jo‘yanda (qidiruvchi) yobandadir (topuvchidir). Baytning ikkinchi misrasi hazrati Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning “Man talaba va jadda vajada”, ya’ni “Kim jiddiy talab qilishga kirishsa, topadi”, – degan buyruqlariga muvofiqdir. Ushbu hadisi sharif forsiyda “жўянда ёбанда бувад” deyilib, zarbulmasalga aylangan”, – deb yozadilar . Bu sharh ikki xulosamizni tasdiqlaydi:

1. Hadislar vaqt o‘tib ma’lum maqollarni yuzaga keltirgan.
2. Rumiylar hazratlari aksariyat hollarda islomiy fikrlarini anglatish, chuqurroq ifodalash uchun bu maqollardan foydalanib, oddiy folklorizmlarni yuzaga keltirgan. Shu sababdan ham sharhlovchilar sharh jarayonida fikrlarini yaqqolroq sharhlay olganlar.

Jamol Kamol tarjima jarayonida o‘zbek maqollari orasida uchraydigan “Izlagan imkon topar, izlamagan bahona” maqolidan foydalangan. Ammo maqol aynan emas, qisqartirilgan holda vazn va qofiya imkoniyatlariga moslab qo‘llangan. Shoir yuzaga keltirgan oddiy folklorizm ko‘ngil ko‘zining ko‘rishi bilan bog‘liq falsafaning idroki uchun muhim o‘rin tutgan. Bu oddiy folklorizm bir necha faslni bir-biriga bog‘lovchi vosita, tugunlar yechimi uchun yo‘l bo‘lib bera bilgan. Rum elchisi daraxt ostida uxlab yotgan Umar (r.a)ni ko‘rib bir vaqtning o‘zida ham mehnini, ham qo‘rquvni his qiladi. Shoir mahorat bilan bir-biriga zid tuyg‘u birlashib yuzaga kelishi mumkinligini, Umar (r.a)dagi haybat aslida Allohning haybati ekanini ifodalari ekan, izlagan Allohga yaqinlikka erishishi mumkinligini ta’kidlaydi. Ikki tarjimon, ayniqsa, Jamol Kamol holatni tarjimada saqlab qola olgan. Shoir yaratgan oddiy folklorizmning tarjimada saqlanishi holatning berilishida muhim o‘rin tutgan.

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli “Maqol asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlarning berilishida tarjimon mahorati” deb nomlangan. Unda asliyatdagi va ikki tildagi tarjimada mavjud, maqol asosida hosil qilingan oddiy folklorizmlar o‘zaro qiyoslangan va tarjimonlar mahorati ochib berilgan.

Hazrat Rumiylarning tafakkuri “Qur’oni karim”, “Hadisi sharif” bilan bir qatorda folklordan, jumladan, xalq maqollaridan o‘ziqlangani uning har bir satridan anglashilib turadi. Shoir goh maqoldan aynan foydalansa, goh maqolga

monand misralar tizib, aforizmlar yaratadi. Bunday o‘rinlar “Masnaviyi ma’naviy”da ko‘p va ular asarning boyishiga, shoir xulosalarining kuchayishiga, asar kompozitsiyasining bir butun bo‘lishiga, voqelikning dalillanishiga, ularning xalq ko‘ngliga chuqurroq kirib borishiga xizmat qilgan, ayni damda, oddiy folklorizmlarni yuzaga keltirgan. “Uchinchi daftar”ning “Xo‘rozning itga javob bergani” faslida shoir kimki Allohdan kelgan baloni chetlab o‘tsa, baloning kattalashib borishini ifodalaydi, ya’ni balo kelsa, Allohni yod etib, uning ichidan o‘tish lozimligini uqtiradi.

Мар сагонро ид бошад марги асб,
Рӯзии вофир бувад бечаҳду касб (300-bet).

Baytda shoir “Otning o‘limi – itning bayrami” maqolini keltirish orqali bir-biriga bog‘liq fasllarning tugunini yuzaga keltiradi. Och itga xo‘roz avval otning, so‘ng tevaning, keyin qulning o‘limini aytib, unga tayyor ovqat borligini aytadi. Bir necha faslda davom etgan bu voqelikda xo‘ja faqat ziyonni boshqalarga yuklab, o‘zini balodan qutqaradi, ammo har safar balo uni tark etmay, kattalashib borganidan saboq chiqarmaydi. Oqibat balo xo‘janing o‘ziga uradi. Voqealardagi salbiylikni anglatish uchun shoir oddiy folklorizmdan foydalanadi:

Ot o‘larkan, itga bayramdir mudom,
Bemashaqqat senga yuzlangay taom (341-bet).

Fors-tojik tilida “Марги хар нишоти саг аст”¹⁹ maqoli bor. Lekin shoir maqollar kitobidagi kabi “марги хар” tarzida emas, “марги асп” shaklida qo‘llagan. Bizningcha, bunday yo‘l tutish ezgulikka balo, ya’ni ofat kelganini, yomon kuchlar, aytaylik, nafs g‘alaba qilganini ifoda etishda qo‘l keladi. Jamol Kamol “Otning o‘limi – itning bayrami”²⁰ maqolini saqlay olgan, chunki tilimizda bunday maqol bor. Vaznga ham mos keltirgan.

The horse’s death will be a feast-day for the dogs:
there will be abundant provender without toil or earning (209-bet).

Ingliz tiliga esa aynan tarjima qilingan, ya’ni “Otning o‘limi – itning bayrami” holatida berilgan. Asliyatda va o‘zbek tilidagi tarjimada oddiy folklorizm mavjud bo‘lsa, ingliz tilidagi tarjimada maqol yo‘q. R.A.Nikolson ingliz tilidagi maqoldan variant tanlamay, maqolni so‘zma-so‘z tarjima qilgan.

Dunyo maqolchiligida farqdan ko‘ra o‘xshashlik ko‘p. Ayniqsa, yashash sharoiti, urf-odatlar o‘xshash, dini bir xalqlar maqollari bir-biriga yaqin bo‘lishi tabiiy. Maqollar bir xalqdan ikkinchi xalqqa o‘tib yuraveradi. Bu jarayon ikki yo‘l bilan amalga oshadi:

1. Bevosita. Ikki xalq yonma-yon yashashi natijasida o‘zaro munosabatda bir xalqning maqoli ikkinchi xalqqa ko‘chib o‘tadi.
2. Bavosita amalga oshadi. Bir xalqning folklori, yozma adabiyoti tarjima qilinganda, tadqiq etilganda bir xalqning maqoli ikkinchi xalqqa ko‘chib o‘tadi. Bu hol oddiy folklorizmning ahamiyatini dalillaydi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “Asliyat va tarjimada ibora, olqish, qarg‘ish

¹⁹ Зарбулмасал ва мақолҳои тоҷикӣ. Нашриёти Давлатии Тоҷикистон, 1960. – С.117.

²⁰ O‘zbek xalq maqollari – Toshkent: Sharq NMAK, 2019. – B.86.

asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlar” deb nomlangan bo‘lib, uch fasldan iborat. Bobning ilk fasli “Ibora asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizmlar” deb atalgan. She’riyat folkloridan doimiy, bevosita va bilvosita foydalanadi. Ibora tilda tayyor bo‘lgan, so‘zga teng hisoblangan, ham tilshunoslik, ham adabiyotshunoslik o‘rganishi zarur sanalgan birlikdir. Tilshunoslik tomonidan qayta-qayta o‘rganilgan, ammo adabiyotshunoslik atroflicha tadqiq qilmagan. Oddiy folklorizmning tarjimada berilishi holatini o‘rganish jarayonida iboralar asosida yuzaga kelgan ko‘rinishini tarjimada saqlab qolishga u qadar e’tibor qaratilmagani sezildi.

“Jon berdi” iborasi shakldosh bo‘lib, ikki xil ma’noda qo‘llanadi. 1. Vafot qildi, o‘ldi. 2. Hayot bag‘ishladi²¹. Ushbu shakldosh ibora asliyatda, o‘zbekcha va inglizcha tarjimada qay taxlit kelgan, ibora yuzaga keltirgan oddiy folklorizmning poetik vazifasi nimadan iborat ekani misollar orqali tadqiq qilinganda quyidagi holatga ro‘para kelindi:

1. “Jon berdi” iborasi asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda bor-u, o‘zbekcha tarjimada aynan yo‘q. Ingliz tilida saqlab qolingan.

2. “Jon berdi” iborasi asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda yo‘q, o‘zbekcha va inglizcha tarjimada bor.

3. “Jon berdi” iborasi asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda ham, o‘zbekcha va inglizcha tarjimada ham bor.

4. “Jon berdi” iborasi asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda, o‘zbekcha tarjimada bor. Ammo inglizcha tarjimada mavjud emas.

5. “Jon berdi” iborasi asosida yuzaga kelgan oddiy folklorizm asliyatda, inglizcha tarjimada mavjud emas, ammo o‘zbekcha tarjimada bor.

Shoir “jon berdi” iborasining “jon ato qildi” ma’nosini beruvchi shakldoshini faqat Allohga nisbatan qo‘llagan. Quyidagi baytda aynan “jon bag‘ishladi” ma’nosi bor:

Он ки танро чон диҳад, то ҳай шавад,
Гар намиронад, зиёнаш кай шавад?

